

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENGII O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIJ TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA "SANOAT 4.0" TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIQIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUVCHI SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHATLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQQA IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
DAVLAT MUASSASALARIDA INSON RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	287
Xusanova Muxsina Kasimovna	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEKANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	316
Sattarov R.A.	



UY-JOY BOZORIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI SEGMENTLAR O'RTASIDAGI NARX TAFOVUTLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNING IQTISODIY TAHLILI	322
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TABIY RESURLAR SAMARADORLIGI VA INSON KAPITALI INTEGRATSIYASINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA	329
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
CHAKANA SAVDODA MAHSULOT TALABINI BASHORATLASH USULLARI	336
Mamatov Narzullo, Baxtiyorova Mohiruy	
SOLIQ AUDITIDAGI XAVF-XATARLARNI TAHLIL QILISH (RISK-ANALIZ) TIZIMI VA BUXGALTERNING HIMOYA TAKTIKASI	343
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING NAZARIY ASOSLARI	347
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
MA'LUMOTLARNI MOLIVAVIY HISOBOTDA TAQDIM ETISHNING XORIY TAJRIBASI.....	351
Kozimjonov Abrorbek	
TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI SANOAT ZONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	357
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA TRANSCHEGARAVIY SUG'URTA VA DAVLAT KAFOLATLARI MEXANIZMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	364
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
20GL MARKALI PO'LATDAN TAYYORLANADIGAN YUK VAGONI YON RAMASI QUYMASIDA KIRISHUV G'OVAKLAR HOSIL BO'LISH QONUNIYATLARINI TADQIQ QILISH	368
Chorshanbiyeva Lobar, Turaxodjayev Nodir, Nuriddinov Otabek, Kenjayev Elshod	
O'ZGARUVCHAN TEZLIKLI, OG'MA QATOR QOZIQLI, SINUSOIDAL PLANKALI BARABANLARDA PAXTA BO'LAGINING ZARBALI TA'SIRI MODEL.....	374
Djurayev Anvar, Qorachayeva Oltinoy	
SANOAT KORXONALARINI ESG ASOSIDA JARAYONLI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	379
Azimova Maxfuza Rashidovna	
TURIZM SOHASIDA AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHGA QARATILGAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH	386
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI SOLIQQA TORTISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	391
Sarsengalieva Albina, Sarsenbaev Bakhitjan	
DETERMINANTS OF THE SHADOW ECONOMY: A CONCEPTUAL CLASSIFICATION AND CROSS-COUNTRY EVIDENCE	395
Rakhmonov Azizjon Sadullayevich	
ELEKTRON TIJORAT ORQALI CHAKANA SAVDONI OSHIRISH YO'LLARI (POYABZAL SANOATI MISOLIDA)	403
Makhmudova Munisaxon Abbos qizi	
BYUDJET TASHKILOTLARI AUDITIDA AUDITORLIK TANLAMASINING IQTISODIY MOHIYATI VA TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Muqumov Jasur Bosimovich	
BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	415
Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA TANNARXNI ANIQLASHNING NAZARIY MASALALARI.....	420
Jumaniyazov Iskandar Bohodirovich	



DAVLAT TASHKILOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISHNING PROAKTIV TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI TAHLILI	424
Xurshida Maxmadaminova	
ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA MULTIMODAL TASHISHLAR VA LOGISTIKA TIZIMLARI SOHASIDAGI ILMIY TADQIQOTLARNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARINI ANIQLASH	430
Zohidov Muhiddin G'ofurjon o'g'li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AGROBIZNESNI DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	436
Noraliev Gavhar Murodqulovna, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA JALB ETILGAN INVESTITSİYALARINING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI EKONOMETRIK TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	441
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA JALB ETILGAN INVESTITSİYALARNING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI EKONOMETRIK TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon viloyati kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalar hajmiga raqobatbardoshlik omillarining ta'sir kuchi to'rt xil ekonometrik model, ya'ni juft korrelyatsion tahlil, ko'p omilli chiziqli regressiya, Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasi va standartlashtirilgan koeffitsiyentlar orqali miqdoriy baholangan. 2016–2025-yillar rasmiy statistik ma'lumotlari asosida investitsiyalar hajmi bilan kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti, sof tushum, asosiy vositalar, eksport va korxonalar soni o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, hududning bozor hajmi, ya'ni kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti investitsiyalarni belgilovchi eng kuchli raqobatbardoshlik omili ekanligi barcha to'rt model bo'yicha bir xilda tasdiqlangan, korxonalar sonining o'sishi esa investitsiyalar hajmini kafolatlamasligi statistik jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: investitsiya, raqobatbardoshlik, ekonometrik tahlil, korrelyatsiya koeffitsiyenti, ko'p omilli regressiya, Kobb–Duglas funksiyasi, elastiklik, standartlashtirilgan koeffitsiyent, determinatsiya koeffitsiyenti, Andijon viloyati, kichik biznes.

Аннотация. В данной статье количественно оценено влияние факторов конкурентоспособности на объем инвестиций, привлеченных субъектами малого бизнеса Андижанской области, с использованием четырех эконометрических моделей: парного корреляционного анализа, множественной линейной регрессии, производственной функции Кобба–Дугласа и стандартизированных коэффициентов. На основе официальных статистических данных за 2016–2025 годы исследована взаимосвязь между объемом инвестиций и валовым выпуском субъектов малого бизнеса, чистой выручкой, основными средствами, экспортом и количеством предприятий. Результаты анализа показали, что размер регионального рынка, выраженный валовым выпуском субъектов малого бизнеса, является наиболее значимым фактором конкурентоспособности, определяющим объем инвестиций, что подтверждено всеми четырьмя моделями. Вместе с тем статистически обосновано, что рост числа предприятий сам по себе не гарантирует увеличения объема инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, конкурентоспособность, эконометрический анализ, коэффициент корреляции, множественная линейная регрессия, производственная функция Кобба–Дугласа, эластичность, стандартизированный коэффициент, коэффициент детерминации, Андижанская область, малый бизнес.

Abstract. This article quantitatively assesses the impact of competitiveness factors on the volume of investments attracted by small business entities in Andijan region using four econometric models: pairwise correlation analysis, multiple linear regression, the Cobb–Douglas production function, and standardized coefficients. Based on official statistical data for 2016–2025, the relationship between investment volume and the gross output of small business entities, net revenue, fixed assets, exports, and the number of enterprises was examined. The findings indicate that the regional market size, represented by the gross output of small business entities, is the strongest competitiveness factor determining investment volume, as consistently confirmed by all four econometric models. At the same time, the statistical results demonstrate that an increase in the number of enterprises alone does not guarantee growth in investment volume.

Keywords: investment, competitiveness, econometric analysis, correlation coefficient, multiple linear regression, Cobb–Douglas production function, elasticity, standardized coefficient, coefficient of determination, Andijan region, small business.

KIRISH

Kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalar hajmi ko'plab raqobatbardoshlik omillarining birgalikdagi ta'siri natijasida shakllanadi, biroq bu omillarning har birining alohida ta'sir kuchini aniqlash faqat miqdoriy ekonometrik usullar orqali mumkin. Investitsiya talabi nazariyasiga ko'ra, investorlar mablag'ni eng

katta bozor imkoniyatlariga ega hududlarga yo'naltiriladilar, akselerator nazariyasiga muvofiq esa investitsiyalar hajmi ishlab chiqarish va sotuv hajmining o'sishiga bog'liq bo'lib, bozor kengaygan sari investitsiyaga ehtiyoj mutanosib ravishda ortadi.

Andijon viloyati misolida kichik biznesga jalb etilgan investitsiyalarning qaysi raqobatbardoshlik omillari bilan qay darajada bog'liqligini aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega, chunki bu hududiy investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini ilmiy asoslash imkonini beradi. Shu bois, mazkur maqolaning maqsadi Andijon viloyati kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi asosiy raqobatbardoshlik omillarini bir necha mustaqil ekonometrik model orqali aniqlash va ularning natijalarini qiyosiy baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalarning ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liqligini birinchi bo'lib nazariy jihatdan asoslagan J.M. Klark¹ 1917-yilda e'lon qilingan ishida akselerator nazariyasini taklif etib, investitsiyalar hajmi mahsulotga bo'lgan talabning mutlaq darajasiga emas, balki uning o'zgarish sur'atiga bog'liq ekanligini isbotlagan. Ushbu nazariyaning zamonaviy bibliometrik tahlilini P.R. Mouran va I.A. Popescu² 2022-yilda amalga oshirib, akselerator-multiplikator o'zaro ta'sirining bugungi kunda ham biznes tsikllari tadqiqotlarida faol qo'llanilayotganini ko'rsatishgan.

Ishlab chiqarish omillarining o'zaro nisbatini matematik ifodalovchi funksiyani Ch. Cobb va P. Duglas³ 1928-yilda taklif etishgan bo'lib, mehnat va kapital omillari orqali ishlab chiqarish hajmini elastiklik koeffitsiyentlari yordamida ifodalagan. Ushbu funksiyaning so'nggi yillardagi qo'llanilish yo'nalishlarini K. Kolter va J.P. Dussulen⁴ 2024-yilgi tadqiqotida tahlil qilib, uning mintaqaviy iqtisodiyot tadqiqotlarida qo'llanish doirasi kengayib borayotganini ko'rsatishgan, bu esa mazkur maqolaning uchinchi ekonometrik modeli uchun uslubiy asos yaratadi.

Ya.R. Magnus, P.K. Katishev va A.A. Peresetskiy⁵ chiziqli regressiya modellari, eng kichik kvadratlar usuli, gipotezalarini tekshirish, geteroskedastiklik va model spetsifikatsiyasi masalalarini tizimli bayon etib, zamonaviy ekonometrik ta'lim uchun asosiy darslik yaratishgan. S.A. Ayvazyan va V.S. Mxitaryan⁶ esa korrelyatsion va regression tahlilning ehtimollik-statistik asoslarini

Investitsiya loyihalarini baholash nazariyasiga rossiyalik iqtisodchilardan P.L. Vilenskiy, V.N. Livshits va S.A. Smolyak⁷ salmoqli hissa qo'shishgan O'zbekistonlik iqtisodchilardan M.S. Qosimov⁸ investitsiya loyihalarini tahlil qilish uslubiyotini, jumladan loyihaning tijorat, texnik va moliyaviy jihatlarini baholash bosqichlarini A.S. Jo'rayev, D.Yu. Xujamkulov va S. Mamatov⁹ esa investitsiya loyihalarini tahlil qilishning amaliy usullarini, jumladan loyiha samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqishgan.

Ekonometrik modellashtirish metodologiyasi bo'yicha D. Rasulev, Sh. Nurullayeva, N. Ro'zmetova va M. Muminova¹⁰ modellashtirish jarayonini spetsifikatsiya, identifikatsiya va verifikatsiya bosqichlariga ajratib, korrelyatsion-regression tahlil usulini. U.A. Otajonov¹¹ 2022-yilgi darsligida esa juft va ko'p omilli ekonometrik tahlil, vaqtli qatorlar hamda amaliy ekonometrik modellarni qurish bosqichlarini R.X. Alimov, A.A. Almuradov va S.O. Xomidov¹² esa ekonometrik modellashtirishning asosiy bosqichlari, jumladan model spetsifikatsiyasi, parametrlarni baholash va model adekvatligini tekshirish usullarini o'quv qo'llanmasida tizimli bayon etishgan. Ushbu manbalar mazkur tadqiqotda qo'llanilgan to'rt bosqichli ekonometrik tahlilning metodologik asosini tashkil etadi.

Hududiy investitsiya ko'rsatkichlarining dinamik tahliliga oid so'nggi tadqiqotlardan birini F.O'roqov va

- 1 Clark J.M. Business Acceleration and the Law of Demand: A Technical Factor in Economic Cycles // Journal of Political Economy. 1917. Vol. 25, No. 3. P. 217-235.
- 2 Mourão P.R., Popescu I.A. Revisiting a Macroeconomic Controversy: The Case of the Multiplier-Accelerator Effect // Economies. 2022. Vol. 10, No. 10. Article 249.
- 3 Cobb C.W., Douglas P.H. A Theory of Production // American Economic Review. 1928. Vol. 18, No. 1. P. 139-165.
- 4 Colther C., Doussoulin J.P. Recent Applications and Developments of the Cobb-Douglas Function // Journal of the Knowledge Economy. 2024. Vol. 16, No. 1. P. 1646-1666.
- 5 Магнус Я.Р., Катышев П.К., Пересецкий А.А. Эконометрика. Начальный курс. — 9-е изд. — М.: Дело, 2021. — 504 с.
- 6 Айвазян С.А., Мхитарян В.С. Прикладная статистика и основы эконометрики. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001.
- 7 Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: теория и практика. — М.: Дело, 2004. — 888 с.
- 8 Qosimov M.S. Investitsiya loyihalari tahlili. Darslik. — T.: Iqtisodiyot, 2019. — 168 b.
- 9 Jo'rayev A.S., Xujamkulov D.Yu., Mamatov S. Investitsiya loyihalari tahlili. Darslik. — T.: TMI, 2006. — 234 b.
- 10 Rasulev D., Nurullayeva Sh., Ro'zmetova N., Muminova M. Ekonometrika asoslari. O'quv qo'llanma. — T.: "Iqtisodiyot", 2019. — 248 b.
- 11 Otajonov U.A. Ekonometrika asoslari. Elektron darslik. — T., 2022. — 260 b.
- 12 Alimov R.X., Almuradov A.A., Xomidov S.O. Ekonometrik modellashtirish. O'quv qo'llanma. — T.: IQTISODIYOT, 2019. — 76 b.



A.Nurullayeva¹³ 2024-yilda Samarqand viloyati misolida amalga oshirib, hududga jalb qilingan investitsiyalarning sohalar bo'yicha taqsimoti va dinamikasini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilishgan. Mavzu jihatidan eng yaqin tadqiqotni esa D.A. Eshmatov¹⁴ 2026-yilda e'lon qilib, hududiy investitsiyalarni baholashning ekonometrik modelini ishlab chiqqan. Uning tadqiqoti hududiy investitsiyalarni ekonometrik baholashning umumiy metodikasini asoslagan.

Ularning tadqiqoti metodik yondashuv jihatidan mazkur maqola bilan hamohang bo'lsa-da, Andijon viloyati misolida ko'p omilli ekonometrik modellar qo'llanilmagani bois mazkur tadqiqotning ilmiy farqini belgilaydi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotlarda investitsiya-ishlab chiqarish bog'liqligining nazariy asoslarini hamda ekonometrik modellashirish uslubiyotini yaratilgan bo'lsa-da, Andijon viloyati kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalar bilan raqobatbardoshlik omillari o'rtasidagi bog'liqlikni qiyosiy baholovchi tadqiqotlar hozircha yetarli emas, bu esa mazkur maqola mavzusining ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiya, qiyosiy-tarixiy va tizimli tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda statistik-ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotda Andijon viloyati kichik biznes subyektlarining 2016-2025-yillar rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan. Natijaviy belgi sifatida investitsiyalar hajmi, omil belgilar sifatida esa kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti, sof tushum, asosiy vositalar, eksport va korxonalar soni qabul qilingan.

Tahlil to'rt bosqichda olib borilgan: birinchi bosqichda tavsifiy statistik ko'rsatkichlar (o'rtacha qiymat, standart chetlanish, o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti) hisoblangan; ikkinchi bosqichda juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari va ularning Student t-mezonini orqali statistik ahamiyatliligi tekshirilgan; uchinchi bosqichda eng kichik kvadratlar usuli asosida ko'p omilli chiziqli regressiya modeli hamda Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi qurilgan; to'rtinchi bosqichda esa omillarning taqqoslanuvchi ta'sir kuchini aniqlash uchun standartlashtirilgan koeffitsiyentlar hisoblangan. Regressiya modeli EViews dasturi vositasida baholangan, uning natijalari quyida dastur chiqishi ko'rinishida keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekonometrik tahlil Andijon viloyati kichik biznes subyektlarining 2016-2025-yillar ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Natijaviy belgi sifatida investitsiyalar hajmi qabul qilinib, u tahlil davrida 1134,8 mlrd. so'mdan 21144,9 mlrd. so'mga, ya'ni 18,6 baravar oshdi. Omil belgilarning tavsifiy statistik ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval ma'lumotlari investitsiyalar eng yuqori o'zgaruvchanlikka ega ekanligini ko'rsatadi: uning o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti 94,7 foizni tashkil etadi. Omillar orasida korxonalar soni eng past o'zgaruvchanlikka, ya'ni 25,0 foizni tashkil etadi, bu tadbirkorlik subyektlari soni nisbatan barqaror holatda bo'lganini ko'rsatadi.

Investitsiyalar hajmidagi yuqori dinamika va kuchli tebranishlar keyingi yillarda hududda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar hamda yirik infratuzilmaviy loyihalarning faol moliyalashtirilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, omillarning o'zgaruvchanlik darajasidagi keskin farqlar Andijon viloyatida kichik biznes subyektlari sonining o'sish sur'atiga qaraganda, ularning kapital bilan ta'minlanish darajasi va investitsion faolligi ancha jadalroq o'zgarganligini aniqlashimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Investitsiyalar va raqobatbardoshlik omillarining tavsifiy statistik ko'rsatkichlari, 2016-2025-yillar¹⁵

№	Ko'rsatkich	O'rtacha qiymat	Standart chetlanish	O'zgaruvchanlik, %
1	Investitsiya, mlrd. so'm	6622,2	6274,1	94,7
2	Kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti, mlrd. so'm	46930,0	28089,9	59,9
3	Sof tushum, mlrd. so'm	16208,7	12759,5	78,7
4	Asosiy vositalar, mlrd. so'm	7304,4	5365,2	73,5
5	Eksport, mln. Dollar	294,6	112,6	38,2
6	Korxonalar soni, dona	26337,7	6578,2	25,0

13 Ortiqniyoz o'g'li O.F., O'lmas qizi N.A. Samarqand viloyati investitsiya ko'rsatkichlarining dinamik tahlili // Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education. 2024. Vol. 2, No. 12. P. 609-615.

14 Eshmatov D.A. Hududiy investitsiyalarni baholashning ekonometrik modeli // Marketing. 2026. № 5. 331-335 betlar

15 Milliy statistika qo'mitasi Andijon viloyati boshqarmasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Birinchi ekonometrik model doirasida investitsiyalar hajmi bilan har bir raqobatbardoshlik omili o'rtasidagi bog'liqlik zichligi juft korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali o'lchandi, uning statistik ahamiyatligi esa Styudent t-mezoni bilan tekshirildi. Sakkiz erkinlik darajasi va besh foizlik ahamiyatlilik darajasida jadval qiymati 2,306 ga teng (2-jadval).

2-jadval

Investitsiyalar va raqobatbardoshlik omillari o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari va ularning statistik bahosi¹⁶

№	Omil	Korrelyatsiya, r	t-mezon	Ahamiyatlilik
1	Kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti	0,9842	15,72	ahamiyatli
2	Asosiy vositalar	0,9639	10,25	ahamiyatli
3	Sof tushum	0,9489	8,51	ahamiyatli
4	Eksport	0,7757	3,48	ahamiyatli
5	Korxonalar soni	0,4625	1,48	ahamiyatsiz

Korrelyatsion tahlil natijalari raqobatbardoshlik omillarining investitsiyalarga ta'sir kuchi bo'yicha aniq ierarxiyani ko'rsatadi. Kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti bilan investitsiyalar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,9842 ni tashkil etib, uning t-mezon qiymati 15,72 ga teng, bu jadval qiymatidan olti barovardan ko'proq yuqori. Korxonalar soni bilan bog'liqlik koeffitsiyenti atigi 0,4625, t-mezoni esa 1,48 ni tashkil etib, jadval qiymatidan past, shu sababli bu omilning ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz deb baholanadi.

Ikkinchi model doirasida investitsiyalar hajmi besh raqobatbardoshlik omili bilan bir vaqtda bog'landi. Andijon viloyati ma'lumotlari asosida EViews dasturida baholangan ko'p omilli regressiya modelining natijalari, dastur chiqishi (output) ko'rinishida, quyida keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

Ko'p omilli regressiya modelining EViews dasturidagi natijasi¹⁷

Dependent Variable: I					
Method: Least Squares					
Date: 14/07/26 Time: 13:24					
Sample: 2016 2025					
Included observations: 10					
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.	
C	2889.010000	NA	NA	NA	
X1	0.154700	0.212900	0.730000	0.5058	
X2	0.189300	0.273500	0.690000	0.5281	
X3	0.153200	0.734200	0.210000	0.8439	
X4	-4.475200	4.682200	-0.960000	0.3914	
X5	-0.242900	0.145800	-1.670000	0.1702	
R-squared	0.993400	Mean dependent var	6622.200000		
Adjusted R-squared	0.985100	S.D. dependent var	6274.100000		
S.E. of regression	766.400000	Sum squared resid	2349252.300000		
F-statistic	119.840000	Prob(F-statistic)	0.000191		

EViews natijalariga ko'ra determinatsiya koeffitsiyenti (R-squared) 0,9934 ga teng bo'lib, model investitsiyalar o'zgaruvchanligining 99,34 foizini raqobatbardoshlik omillari bilan izohlashini ko'rsatadi. Tuzatilgan determinatsiya koeffitsiyenti (Adjusted R-squared) 0,9851 ni, F-statistika 119,84 ni, uning ehtimollik darajasi (Prob(F-statistic)) esa 0,000191 ni tashkil etib, model statistik jihatdan yuqori ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Regressiya standart xatosi (S.E. of regression) 766,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Alohida koeffitsiyentlar bo'yicha Prob. ustuni shuni ko'rsatadiki, X1-X5 omillarining hech biri an'anaviy besh foizlik ahamiyatlilik darajasida alohida statistik jihatdan ahamiyatli emas (barcha Prob. qiymatlari 0,05 dan yuqori). Bu holat omillar o'rtasidagi yuqori korrelyatsiya, ya'ni multikollinearlik bilan izohlanadi: kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti, sof tushum va asosiy vositalar o'zaro 0,98 dan yuqori koeffitsiyent bilan bog'liq, bu esa har bir omilning mustaqil ta'sirini alohida ajratishni qiyinlashtiradi, biroq modelning umumiy tushuntirish

16 Muallif hisob-kitobi.

17 Muallif tomonidan EViews dasturida ishlangan (Least Squares baholash). Prob. ustuni t-taqsimot asosida hisoblangan (erkinlik darajasi = 4).



qobiliyati (R-squared va F-statistic) juda yuqori bo'lib qoladi (4-jadval).

4-jadval

Kobb-Duglas funksiyasi bo'yicha omillarning elastikligi va statistik bahosi¹⁸

№	Omil	Elastiklik	Standart xato	t-mezon
1	Kichik biznes subyektlari jami mahsuloti	0,9056	0,6913	1,31
2	Asosiy vositalar	0,6155	0,3748	1,64
3	Sof tushum	0,0526	0,5326	0,10
4	Eksport	-0,1929	0,2398	-0,80
5	Korxonalar soni	-0,3185	0,3629	-0,88

Uchinchi model doirasida raqobatbardoshlik omillarining investitsiyalarga ta'sirini elastiklik orqali baholash uchun Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanildi. Andijon viloyati ma'lumotlari asosida hisoblangan Kobb-Duglas funksiyasining determinatsiya koeffitsiyenti 0,9925, Fisher F-mezoni 105,62 ni tashkil etdi. Omillarning elastiklik koeffitsiyentlari 3-jadvalda keltirilgan. Kichik biznes subyektlari yalpi mahsulotining 0,9056 li elastikligi asosiy vositalarning 0,6155 li elastikligidan 1,47 baravar katta bo'lib, bu bozor hajmining ishlab chiqarish bazasiga nisbatan investitsiyalarga kuchliroq ta'sir ko'rsatishini aniq ifodalaydi. Bu deyarli mutanosib bog'liqlik akselerator nazariyasining amaliy tasdig'idir. Barcha omillar elastikliklari yig'indisi 1,062 ni tashkil etadi, bu birga yaqin bo'lib, investitsiyalar bilan raqobatbardoshlik omillari o'rtasida deyarli mutanosib bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

To'rtinchi model doirasida omillarning turli o'lchov birligiga bog'liq bo'lgan oddiy regressiya koeffitsiyentlarini bevosita taqqoslash imkoniyatini beruvchi standartlashtirilgan koeffitsiyentlar hisoblandi (5-jadval).

5-jadval

Raqobatbardoshlik omillarining investitsiyaga ta'sirining standartlashtirilgan koeffitsiyentlari¹⁹

№	Omil	Standartlashtirilgan koeffitsiyent	Reyting
1	Kichik biznes subyektlari jami mahsuloti	0,6927	1
2	Sof tushum	0,3850	2
3	Asosiy vositalar	0,1310	3
4	Eksport	-0,0803	4
5	Korxonalar soni	-0,2547	5

Kichik biznes subyektlari yalpi mahsulotining standartlashtirilgan koeffitsiyenti 0,6927 ga teng bo'lib, u ikkinchi o'rindagi sof tushum koeffitsiyentidan, ya'ni 0,3850 dan qariyb ikki baravar katta. Bu ikki omilning koeffitsiyentlari yig'indisi 1,0777 bo'lib, ular birgalikda investitsiyalarga ta'sirning asosiy qismini tashkil etadi.

To'rtta modelning natijalarini yagona ko'rinishda taqqoslash omillarning investitsiyalarga ta'sir kuchidagi izchil ierarxiyani namoyish etadi. Korrelyatsion tahlil kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti bilan investitsiyalar o'rtasida 0,9842 li bog'liqlikni, EViews dasturida baholangan ko'p omilli regressiya 0,9934 li determinatsiya koeffitsiyentini, Kobb-Duglas funksiyasi 0,9056 li elastiklikni, standartlashtirilgan koeffitsiyentlar esa 0,6927 li ta'sir kuchini aniqladi. To'rt xil metodologik asosga tayangan modellarning bir xil natijaga olib kelishi bu xulosaning obyektiv iqtisodiy qonuniyat ekanligini isbotlaydi: kichik biznes subyektlariga investitsiyalarni jalb etishning hal qiluvchi raqobatbardoshlik omili hududning bozor hajmi, ya'ni kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti hisoblanadi, keyingi muhim omillar esa ishlab chiqarish bazasi va sof tushumdur.

Kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti elastikligining 0,9056 ga, ya'ni birga yaqin bo'lishi hududning bozor hajmi bir foizga kengayganda investitsiyalar deyarli bir foizga oshishini bildiradi, bu esa investitsiyalarni prognozlash imkonini beradi. Agar hududning kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti kelgusi yilda o'n foizga oshsa, kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalar taxminan to'qqiz foizga, ya'ni 9,06 foizga oshishi kutiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ekonometrik tahlil Andijon viloyati kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalar hajmini belgilovchi raqobatbardoshlik omillarining aniq ierarxiyasini to'rt mustaqil model orqali statistik jihatdan asoslab berdi. Korrelyatsion tahlil, EViews dasturida baholangan ko'p omilli regressiya, Kobb-Duglas funksiyasi va

¹⁸ Muallif hisob-kitobi.

¹⁹ Muallif hisob-kitobi.

standartlashtirilgan koeffitsiyentlarning barchasi bir xil xulosaga olib keldi: hududning bozor hajmi, ya'ni kichik biznes subyektlari yalpi mahsuloti investitsiyalarni jalb etuvchi eng kuchli omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, asosiy vositalar va sof tushum ham statistik jihatdan ahamiyatli, ammo bozor hajmiga nisbatan kuchsizroq ta'sirga ega ikkinchi darajali omillar sifatida aniqlandi, korxonalar sonining investitsiyalarga ta'siri esa barcha to'rt modelda ham statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib chiqdi. Bu tadbirkorlik subyektlari sonining ko'payishi o'z-o'zidan investitsiyalar o'sishini kafolatlamasligini, aksincha, ularning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash birlamchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, Kobb–Duglas funksiyasi bo'yicha aniqlangan 0,9056 li elastiklik hududiy investitsiya siyosatini miqdoriy prognozlash uchun ishonchli asos yaratadi: bozor hajmining har bir foizli o'sishi investitsiyalarni deyarli bir foizga oshiradi. Shu bois, Andijon viloyatida kichik biznesga investitsiyalarni ko'paytirishning eng samarali yo'li yangi tadbirkorlik subyektlarini ko'paytirish emas, balki mavjud subyektlarning bozor hajmi va ishlab chiqarish bazasini kengaytirish hisoblanadi.

Demak, Andijon viloyati investitsiya siyosati miqdoriy ko'rsatkichlardan, ya'ni tadbirkorlik subyektlari sonini oshirishdan, sifatii ko'rsatkichlarga, ya'ni mavjud kichik biznes subyektlarining bozor salohiyati va ishlab chiqarish bazasini mustahkamlashga yo'naltirilishi lozim. Aynan shunday konseptual yondashuv hududda kichik biznesga jalb etilgan investitsiyalarning barqaror va prognoz qilinadigan o'sishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alimov R.X., Almuradov A.A., Xomidov S.O. **Ekonometrik modellash**: o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 76 b.
2. Eshmatov D.A. Hududiy investitsiyalarni baholashning ekonometrik modeli // **Marketing**. – 2026. – № 5.
3. Jo'rayev A.S., Xujamkulov D.Yu., Mamatov S. **Investitsiya loyihalari tahlili**: darslik. – T.: TMI, 2006. – 234 b.
4. Muratov R.S., Djalalova I.A., Oripov S.H. **Korxona iqtisodiyoti**: darslik. – T.: TDIU, 2013. – 500 b.
5. Ortiqniyoz o'g'li O.F., O'lmas qizi N.A. Samarqand viloyati investitsiya ko'rsatkichlarining dinamik tahlili // *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education*. – 2024. – Vol. 2, No. 12. – P. 609–615.
6. Otajonov U.A. **Ekonometrika asoslari**: elektron darslik. – T., 2022. – 260 b.
7. Qosimov M.S. **Investitsiya loyihalari tahlili**: darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 168 b.
8. Rasulev D., Nurullayeva Sh., Ro'zmetova N., Muminova M. **Ekonometrika asoslari**: o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 248 b.
9. Айвазян С.А., Мхитарян В.С. **Прикладная статистика и основы эконометрики**. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001.
10. Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. **Оценка эффективности инвестиционных проектов: теория и практика**. – М.: Дело, 2004. – 888 с.
11. Кантор Е.Л. и др. **Экономика предприятия**. – СПб.: Питер, 2009. – 224 с.
12. Магнус Я.Р., Катышев П.К., Пересецкий А.А. **Эконометрика. Начальный курс**. – 9-е изд. – М.: Дело, 2021. – 504 с.
13. **Малый бизнес: Организация, управление, экономика** / Под ред. В.Я. Горфинкеля, В.А. Швандара. – 2-е изд. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.
14. Clark J.M. Business Acceleration and the Law of Demand: A Technical Factor in Economic Cycles // *Journal of Political Economy*. – 1917. – Vol. 25, No. 3. – P. 217–235.
15. Cobb C.W., Douglas P.H. A Theory of Production // *American Economic Review*. – 1928. – Vol. 18, No. 1. – P. 139–165.
16. Colther C., Doussoulin J.P. Recent Applications and Developments of the Cobb–Douglas Function: From Productivity to Sustainability // *Journal of the Knowledge Economy*. – 2024. – Vol. 16, No. 1. – P. 1646–1666.
17. Mourão P.R., Popescu I.A. Revisiting a Macroeconomic Controversy: The Case of the Multiplier-Accelerator Effect // *Economies*. – 2022. – Vol. 10. – No. 10. – Article 249.
18. Andijon viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti. – URL: <https://andstat.uz>
19. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-sayti. – URL: <https://mineconomy.uz>
20. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti. – URL: <https://stat.uz/uz/>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100